ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 406 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CODEPЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Ганурова

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik mohiyati ... 97
Mavlyanova Umida Sadikjanovna

Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari 101
Choriyeva Durdona Anvarovna, Malikova Umida Nurliboy qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvahob qizi

Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar milliy qadriyatlariga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 106
Turg'unov Baxromjon Raximjonovich

Tarbiyachi-pedagoglarda deontologik kompetensiyani rivojlantirishning metodologik yondashuvlari 112
Davlatova Dildora Nuriddinovna

Autizm spektri buzilishiga ega bolalarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari 115
A. B. Mamatova

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati monitoringi va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish 123
Mongiyev Abdulxokim Ibragimovich

Transformational School Leadership and Teacher Performance: A Narrative Literature Review 127
Nilufar Buriyeva Anvar kizi, Axatov Aminjon Tohir ugli,
Sodiqova Marziyaxon Botirjon kizi, Lutfullayeva Moxistara Xayrullo kizi

Pedagogical Model for Improving the Methodological Competence of Future History Teachers Based on Digital Historical Sources 133
Otegenov Berdibay Menglibaevich

Tarbiyalanuvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari va ertakterapiya imkoniyatlari 136
Qosimova Muattarxon Shokirjon qizi

O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik mahorat, refleksiv va innovatsion yondashuvning integratsiyasi 140
Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna

Xorijiy tajribalar asosida maktab ta'lim mazmunini takomillashtirish 146
Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Teshayeva Toxira Inomjonovna

Pedagogik muhandislikning metodologik asoslari, kategoriyaviy apparati va yondosh ilmiy-pedagogik yo'nalishlar bilan o'zaro aloqadorligi 151
Nasrullayeva Fatima Azatovna

Рефлексивная подготовка будущих воспитателей к личностно ориентированному взаимодействию с дошкольниками 160
Бозорова Зухра Жураевна

Bo'lajak tarbiyachilarning tasviriy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni 165
Xazratkulova Gulyora Tojiboyevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili ta'limini loyihalash kompetensiyasini metakognitiv yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi 169
Raupova Navbahor Bahriddinovna

Kursant va talabalarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish va ekstremal sharoitlarda harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari 174
Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich

Talabalarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy zaruriyati 179
Sharipova Guzal Sodiqovna

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining matematik tasavvurlarini mental yondashuv asosida takomillashtirish: nazariy-metodik sharh 185
Parpiyeva Mohinur Baxtiyor qizi

STEAM yondashuvi asosida fizika laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi 189
Artikov Abdukaxor

"Korpus detektori" mashqlar tizimi: tuzilishi, bosqichlari va qo'llash metodikasi 196
Bahronov Nodirbek Aliyevich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongli o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda tabaqalashtirilgan yondashuv (EGRA-U diagnostikasi asosida) 199
Ne'matova Diyora Baxodir qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Ona tili darslarida hamkorlik texnologiyasidan foydalanishning mavjud holati va metodik muammolari 205
Usmonova Yulduz Faxriddin qizi

Grammatik tarjima metodida ona tilidan foydalanishning didaktik xususiyatlari 210
Erkinova Madina Komil qizi

Talabalarda ta'limiy kommunikativlikni rivojlantirishning pedagogik shart sharoitlari 214
Babayeva Maxfuza Abduvaitovna, Ismoilov Bobur Toxirovich

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi refleksiv kompetensiyasining mazmuni, tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish darajalari 218
Bomurodova Gulhayo Jumayevna

Masalalarni tenglama tuzish yordamida yechimini qurishga o'rgatish metodikasi 223
Ismoilov Bobur Toxirovich, Babayeva Maxfuza Abduvaitovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash mazmunida argumentatsion nutq: darsliklar, o'quv reja va oliy ta'lim adabiyotining kontent-tahlili 229
Mamatova Marg'uba Ummatqul qizi

Основы паллиативной помощи педагогическая поддержка детей, получающих паллиативную помощь 233
Жузбаев Нурлан Урал угли, Хакимова Гульшода Абдусаламовна

"Pedagogikaning pragmatik aspektlari" modulini kreativ yondashuv asosida o'qitish modeli va ingliz tilidagi o'quv materiallarini tanlash mezonlari 237
Meliqo'ziyeva Zarnigorxon Ikromjon qizi

Gospital sharoitida turli yosh guruhlaridagi bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari 242
S. M. Umarova

Harbiy xizmatchilarda kasbiy faoliyat davomida hissiy kuyish (emotsional burnout) sindromining ijtimoiy-psixologik psixoprofilaktikasi 246
Tursunov Kamariddin G'ulomovich

Использование подходов геймификации при обучении иностранному языку детей 5-6 лет 250
Курбанова Назира Низомиддиновна

Ko'rish imkoniyati cheklangan o'quvchilarda tiflotexnik vositalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish metodlari 257
Astanova Zumradxon Toxirovna

O'quvchilar xulq-atvoridagi og'ishish ilmiy tadqiqotlar talqini asosida 262
Azimjonova Rushana Rashid qizi

Образ сильной узбекской женщины в творчестве Зульфии 267
Аскарова Наргиза Абдивалиевна, Усманова Самира Зафаровна

Inklyuziv guruhlarda differensiallashtirilgan yozma topshiriqlar tizimini loyihalash tamoyillari 271
D. X. Saydazimova

Maktabgacha ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish va tarbiyachining kreativ kompetentligini oshirish metodlari 275
Odilova Sitora Ergash qizi

Milliy qadriyatlarga asoslangan matnlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy va tanqidiy fikrlashini notiqlik faoliyati orqali rivojlantirish 281
Ziyodullayeva Zuhro Faxriddin qizi

Raqamli transformatsiya sharoitida o'qituvchining refleksiv kompetensiyasini rivojlantirish modeli 286
Magzumova Lola Turakulovna

Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limda seldan foydalanishga tayyorlash muammosining ijtimoiy va metodik qatlamlari 292
Sayfullayeva Ismigul Qodir qizi

Ichki ishlar xodimlarida koping-strategiyani shakllantirish kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli ta'minlovchi omil sifatida 296
Aliboyev Himaydin Fayzulla o'g'li

Psixologik holatni baholash asosida differensial mashqlar orqali badmintonchilarning koordinatsion va texnik tayyorgarligini rivojlantirish 299
Beknazarov Raxat Axmet og'li

Oliy ta'limda biotexnologiya fanini o'qitishning zamonaviy pedagogik asoslari 302
Jumabayeva Aygul Kuatovna, Ametov Yakub Idrisovich

Dialogik nutq o'qitish metodikasining shakllanishi 307
Xamidullayeva Fotima Adxam qizi

Алгоритм развития управленческой компетентности будущих учителей русского языка и литературы на основе обратной связи и коррекции педагогических решений 313
Акмалова Дилдора Тохировна

Эффективные методы развития икт-компетентности педагогов в цифровой образовательной среде ... 319
Каримова Наргизахон Яхёевна

Qadimgi Misr va Gretsiya olimlarining muhandislik grafikasi fani yuzasidan izlanishlari 322
Ergasheva Shohista Anvar qizi

Предметно-языковые задания на уроках русского языка в начальной школе Узбекистана 324
Худжамова Хуснора Диёр кизи

Musiqa ta'limi dars mashg'ulotlarida interfaol metodlardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari 329
Tuxtasinov Abror Rustamovich

Developing Creative Competence During Pedagogical Practice: an Integrated Model for Future English Language Teachers 332
Mukhtorov Mukhiddin Mansur o'g'li

AI-generatsiyalanuvchi adaptiv testlar orqali talabalarning bilim darajasini diagnostika qilish metodikasini takomillashtirish 338
Abdullayeva Nazokat Isayevna, Habibullayeva Jamilaxon Ne'mat qizi

Aniq fanlarni o'qitishda o'quvchilarning darsdan tashqari faoliyatini tashkil etishning didaktik modeli va vositalari 343
Saidov Utkirjon Mallayevich, Abdurashidova Munira Abdumumin qizi

Muammoli vaziyatlar va keys-stadi asosida bo'lajak pedagoglarning tanqidiy-analitik tafakkurini rivojlantirish metodikasi 348
Kubayeva Maxbuba Raxmatulayevna

Badiiy asarlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy tafakkuri va ijobiy xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi 352
Uvaydiloyeva Zarrina Olimovna, Abdullayeva Nazokat Isayevna

Sport psixologining kasbiy kompetentligini tadqiq etishning zamonaviy yo'nalishlari va metodologik muammolari 357
Rasulov Zokir Pardayevich

Научно-теоретические основы совершенствования самостоятельного обучения студентов педагогических вузов в процессе изучения микробиологии 363
Нарзуллаева Ирода Уктам кизи, Каландарова Мадина Андрей кизи

Tarixiy manbalar asosida talabalarda tarixiy tafakkur va tarixiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari 368
Ne'matullayev Shohjahon G'aybulla o'g'li

Sun'iy intellekt texnologiyalarining oliy ta'lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari 378
Mirzaraximova Zilola Mirzohid qizi

Sun'iy intellekt texnologiyalarining oliy ta'lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari 378
Mirzaraximova Zilola Mirzohid qizi

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari 382
Hazratqulova Aziza Rustam qizi, Ashurov Abror Uralovich

Sog'lom turmush tarzidagi qizlarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda harakatli o'yinlardan foydalanish mexanizmlari 389
Tashpulatova Dono Ergashevna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Xorij va milliy pedagogika tadqiqotlarida metakognitiv kompetensiya tushunchasi tahlili 395
Feruza Xasanova, Assistent o'qituvchi

Talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan foydalanishning nazariy-metodologik aspektlari 402
Ibotova Dildora Shomirovna



TARIXIY MANBALAR ASOSIDA TALABALARDA TARIXIY TAFAKKUR VA TARIXIY-MADANIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Ne'matullayev Shohjahon G'aybulla o'g'li
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (Tarix) mutaxassisligi magistranti
ORCID: 0009-0004-6161-5559

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'limda tarixiy manbalar asosida talabalarning tarixiy tafakkuri va tarixiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy asoslab berilgan. Tadqiqotning maqsadi manba bilan ishlashni kompetensiyalarni shakllantirish vositasi sifatida tahlil qilish va uning samarali amalga oshishini ta'minlovchi shartlar tizimini aniqlashdir. Bu esa qamrov kengayib, kredit-modul tizimiga o'tilayotgan hozirgi sharoitda ayniqsa dolzarbdir. Ishda oliy ta'lim sohasidagi normativ hujjatlar, tarixiy tafakkur bo'yicha xalqaro empirik tadqiqotlar natijalari hamda O'zbekiston va Markaziy Osiyo tarixiga oid yozma, moddiy va vizual manbalarning yaratilish faktlari va didaktik imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Ilmiy yangilik sifatida tarixiy tafakkurning to'rt komponenti (manba tanqidi, kontekstlashtirish, taqqoslash va sabab-oqibat tahlili, talqin) tarixiy-madaniy kompetensiyaning bilimiy, qadriyatli, faoliyatli va kommunikativ qismlari bilan yagona modelda bog'landi. Tadqiqot natijasida beshta pedagogik shart – manbalarning tizimli tanlanishi, muammoli-tadqiqot topshiriqlari, bosqichma-bosqich metodik yordam, natija, faoliyat va baholash uyg'unligi hamda madaniy-axborot muhiti - aniqlandi. Shartlarni amalga oshirish uchun to'rt bosqichli modul, 80 daqiqalik namunaviy mashg'ulot va to'rt mezonli uch darajali baholash rubrikasi ishlab chiqildi. Modelning samaradorligini tekshirish uchun tajriba va nazorat guruhlarini o'z ichiga olgan tajriba-sinov dizayni belgilab berildi; unda boshlang'ich va yakuniy diagnostika, rubrika bo'yicha baholash hamda natijalarni statistik taqqoslash nazarda tutiladi. Maqola natijalaridan oliy ta'lim pedagoglari, tarix o'qituvchilari va magistrantlar o'quv jarayonini loyihalashda va mavzular kesimida manbalar bankini shakllantirishda foydalanishi mumkin.

Kalit so'zlar: tarixiy tafakkur, tarixiy-madaniy kompetensiya, tarixiy manba, manba tanqidi, pedagogik shart-sharoitlar, constructive alignment, kredit-modul tizimi, oliy ta'lim.

Abstract: The article provides a scientific substantiation of the pedagogical conditions for developing students' historical thinking and historical-cultural competence through historical sources. The aim is to examine source work as a means of competence formation and to identify a system of conditions that ensures its effectiveness, which is especially relevant as higher education coverage expands and the credit-module system is introduced. The study comparatively analyses regulatory documents in higher education, the results of international empirical research on historical thinking, and the didactic potential of written, material and visual sources, including the facts of creation of well-known sources on the history of Uzbekistan and Central Asia. The scientific novelty lies in linking the four components of historical thinking (source criticism, contextualization, corroboration and causal analysis, interpretation) with the cognitive, value-based, activity-based and communicative components of historical-cultural competence in a single model. As a result, five pedagogical conditions were identified: systematic selection of sources, problem-based inquiry tasks, step-by-step methodological support, alignment of outcomes, activities and assessment, and a cultural-informational environment. To implement these conditions, a four-stage module, a sample 80-minute session and a three-level assessment rubric with four criteria were developed. A design for a pedagogical experiment with experimental and control groups was specified to test the effectiveness of the model; it provides for initial and final diagnostics, rubric-based assessment and statistical comparison of results. The findings may be used by university instructors, history teachers and master's students when designing the learning process and building a bank of sources by topic.

Key words: historical thinking, historical-cultural competence, historical source, source criticism, pedagogical conditions, constructive alignment, credit-module system, higher education.

Аннотация: В статье научно обоснованы педагогические условия развития у студентов исторического мышления и историко-культурной компетенции на основе исторических источников. Цель исследования – рассмотреть работу с источником как средство формирования компетенций и определить систему условий её эффективной реализации, что особенно актуально в период расширения охвата высшим образованием и перехода на кредитно-модульную систему. Проведён сравнительный анализ нормативных документов в сфере высшего образования, результатов зарубежных эмпирических исследований по историческому мышлению и дидактических возможностей письменных, вещественных и визуальных источников, а также фактов создания известных источников по истории Узбекистана и Центральной Азии. Научная новизна состоит в том, что четыре компонента исторического мышления (критика источника, контекстуализация, сопоставление и причинно-следственный анализ, интерпретация) связаны в единой модели с познавательным, ценностным, деятельностным и коммуникативным компонентами историко-культурной компетенции. В результате выявлены пять педагогических условий: системный подбор источников, проблемно-исследовательские задания, поэтапная методическая поддержка, согласованность результатов, деятельности и оценивания, а также культурно-информационная среда. Для реализации условий разработаны четырёхэтапный модуль, примерное занятие продолжительностью 80 минут и трёхуровневая рубрика оценивания по четырём критериям. Определён дизайн педагогического эксперимента с экспериментальной и контрольной группами для проверки эффективности модели; он предусматривает входную и итоговую диагностику, оценивание по рубрике и статистическое сопоставление результатов. Результаты статьи могут быть использованы преподавателями вузов, учителями истории и магистрантами при проектировании учебного процесса и формировании банка источников по темам.

Ключевые слова: историческое мышление, историко-культурная компетенция, исторический источник, критика источника, педагогические условия, конструктивное согласование, кредитно-модульная система, высшее образование.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborot oqimi keskin ortgan sharoitda yoshlarda tarixiy ongni shakllantirish, tarixiy xotira va milliy o‘zlikni anglashni mustahkamlash ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ta’lim sifatini oshirish va yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan [1].

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son[1] Qonuni ham ta’lim sifatini oshirish va shaxsning intellektual rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan [2].

Oliy ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar bu vazifaning ahamiyatini yanada oshirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son[2] Farmoni bilan tasdiqlangan konsepsiyada oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 2030-yilgacha 50 foizdan oshirish vazifasi qo‘yilgan [3]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son[3] qaroriga muvofiq, 2020/2021-o‘quv yilidan boshlab oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoni Kreditlarni to‘plash va ko‘chirishning Yevropa tizimi (ECTS) asosidagi kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich o‘tkazilmoqda [4]. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish belgilangan [5]. Mehnat bozori axborot tizimi ma’lumotlariga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalari soni 2017/2018-o‘quv yilidagi 72 tadan 2023/2024-o‘quv yilida 219 taga, ya’ni taxminan uch barobar ko‘paygan [6]. Qamrov va muassasalar soni kengayganda ta’lim sifatini ta’minlash, xususan, talabaning mustaqil ishiga ajratiladigan yuklama ortgan sharoitda uni tafakkurni rivojlantiruvchi mazmun bilan to‘ldirish muhim pedagogik masalaga aylanadi.

Tarix fani bu jarayonda alohida o‘rin tutadi. Biroq tarix o‘qitish amaliyotida sanalar va tayyor xulosalarni yodlash, darslik matnini qayta so‘zlab berish hanuzgacha ustun bo‘lib qolmoqda. Xalqaro tadqiqotlarda tarixiy tafakkur o‘quvchi va talabaning tabiiy qobiliyati emas, balki maxsus o‘rgatiladigan murakkab intellektual faoliyat ekanligi ta’kidlanadi: S. Vaynberg uni “tabiiy bo‘lmagan harakat” deb ataydi [7], P. Seyksas va T. Morton esa uni oltita tayanch tushuncha orqali tavsiflaydi [8]. Tarixiy manba bu faoliyatning asosiy materialidir: manba bilan ishlash orqali talaba tarixni “tayyor bilim” sifatida emas, dalillar asosida quriladigan va munozara qilinadigan talqin sifatida anglaydi.

Axborot makonidagi vaziyat bu masalani yanada keskinlashtirmoqda. Stenford universiteti tarix ta’limi guruhi 2015-yil yanvaridan 2016-yil iyunigacha AQShning 12 shtatida 56 ta topshiriq o‘tkazib, o‘rta maktab, litsey va universitet talabalaridan jami 7 804 ta javob to‘plagan. Tadqiqot mualliflari yoshlarning internetdagi axborotni baholash qobiliyatini qoniqarsiz deb topgan; masalan, ilg‘or (AP) tarix kursida o‘qiyotgan yuqori sinf o‘quvchilarining atigi 9 foizi lobbichi tashkilot yaratgan veb-saytning aslida kim tomonidan yaratilganini aniqlay

1 https://lex.uz/docs/-5013007
2 https://lex.uz/docs/-4545884
3 https://lex.uz/uz/docs/-5193564

olgan [9]. Demak, "manbani kim, qachon va nima maqsadda yaratgan" degan savolni qo'ya olish tarix fani uchungina emas, umuman zamonaviy axborot savodxonligining negizidir.

Bunday savodxonlik tarixiy-madaniy meros masalasida ham zarur. O'zbekistonning moddiy merosi jahon miqyosida e'tirof etilgan: 1990-yilda Xiva Ichan qal'asi mamlakatdan birinchi bo'lib YUNESKO Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan, 2023-yilda esa Tojikiston va Turkmaniston bilan birgalikda "Ipak yo'llari: Zarafshon–Qoraqum yo'lagi" transmilliy obyekti ro'yxatdan o'tgan [10]. Bunday meros bo'lajak tarix o'qituvchisi va tadqiqotchisidan uni nafaqat bilishni, balki manbalar asosida talqin qila olishni, turli nuqtayi nazarlarni hurmat bilan qiyoslay olishni talab qiladi. Shu bois tarixiy tafakkur bilan bir qatorda talabaning tarixiy-madaniy kompetensiyasi, ya'ni madaniy merosni tushunish, qadrlash va talqin qila olish layoqati ham ta'lim natijasi sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqot muammosi shundan iboratki, tarixiy manbalar bilan ishlash zarurligi keng e'tirof etilsa-da, bu ishning talabalar tafakkuri va madaniy kompetensiyasini izchil rivojlantirishga xizmat qilishini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar yagona tizim sifatida yetarlicha asoslanmagan.

Tadqiqot obyekti - oliy ta'limda tarix fanlarini o'qitish jarayoni.

Tadqiqot predmeti - tarixiy manbalar asosida talabalarda tarixiy tafakkur va tarixiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.

Tadqiqot maqsadi - bu shart-sharoitlar tizimini ilmiy asoslash va ularni amalga oshirish modelini taklif etish.

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

birinchidan, tadqiqot tushunchalarini aniqlashtirish va ularning tuzilmasini belgilash;

ikkinchidan, normativ asoslar va xalqaro empirik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish;

uchinchidan, turli tarixiy manba turlarining didaktik imkoniyatlarini aniq faktlar asosida ochib berish;

to'rtinchidan, pedagogik shartlar tizimini va uni amalga oshirish bosqichlarini ishlab chiqish;

beshinchidan, kompetensiyalar rivojlanganlik darajasini baholash mezonlarini belgilash.

Tadqiqot farazi: agar tarixiy manbalar bilan ishlash manbalarning tizimli tanlanishi, muammoli-tadqiqot topshiriqlari, bosqichma-bosqich metodik yordam, natija–faoliyat–baholash uyg'unligi hamda madaniy-axborot muhiti va dialogik muloqotdan iborat shartlar tizimida tashkil etilsa, talabalarda tarixiy tafakkur va tarixiy-madaniy kompetensiya an'anaviy o'qitishga nisbatan yuqori darajada rivojlanadi.

Ilmiy yangilik - tarixiy tafakkurning to'rt komponenti bilan tarixiy-madaniy kompetensiyaning to'rt tarkibiy qismini manba turlari, topshiriqlar va baholash mezonlari orqali yagona modelda bog'lash.

Amaliy ahamiyati - taklif etilgan shartlar, bosqichlar va rubrikadan tarix yo'nalishlaridagi seminar va amaliy mashg'ulotlarni loyihalashda foydalanish mumkinligida.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tarixiy bilishning mohiyati haqidagi qarashlar R. Kollingvud va M. Blok asarlarida asoslab berilgan. Kollingvudning "Tarix g'oyasi" asari muallifning vafotidan keyin, 1946-yilda nashr etilgan bo'lib, unda tarix dalillar asosida qo'yiladigan savollarga javob izlash jarayoni sifatida talqin qilinadi [11]. Blokning "Tarixchi kasbi" asari esa muallif 1944-yilda fashistlar tomonidan otib tashlanganidan keyin, 1949-yilda fransuz tilida, 1953-yilda ingliz tilida chop etilgan; unda manbaga "guvohlik" sifatida ilmiy-tahliliy yondashish tarixchi kasbining muhim asosi ekani ta'kidlanadi [12]. Ushbu qarashlar ta'lim sohasida manba bilan ishlashning nazariy asoslarini shakllantirishga xizmat qilgan.

Ta'limdagi empirik yo'nalishning asoschisi S. Vaynberg hisoblanadi. U 1991-yilda sakkiz nafar mutaxassis tarixchi va sakkiz nafar yuqori sinf o'quvchisidan Leksington jangiga oid yozma va tasviriy hujjatlarni "ovoz chiqarib fikrlash" usulida o'qishni so'radi va ikki guruhning fikrlash jarayonini taqqosladi [13; 14]. Tarixchilar matnni o'qishdan oldin uning muallifi va yaratilish sharoitiga e'tibor qaratdi, hujjatlarni bir-biri bilan solishtirdi, voqeani davr kontekstiga joyladi. Bu amallar keyinchalik manbani aniqlash (sourcing), taqqoslash (corroboration) va kontekstlashtirish (contextualization) deb nomlandi. Vaynbergning keyingi monografiyasida tarixiy tafakkur maxsus yondashuv va izchil mashqlar orqali rivojlantiriladigan intellektual faoliyat sifatida tavsiflanib, uni maqsadli o'rgatishning ahamiyati asoslangan [7].

P. Seyksas va T. Morton tarixiy tafakkurning oltita tayanch tushunchasini - tarixiy ahamiyat, dalil, davomiylik va o'zgarish, sabab va oqibat, tarixiy nuqtayi nazarlar hamda axloqiy o'lchamni - ajratib ko'rsatgan; ular manba tahlili amallarini "dalil" va "tarixiy nuqtayi nazarlar" tushunchalari doirasida ko'radi [8]. S. Levek tarixiy tafakkurni XXI asr ta'limining muhim tarkibiy qismi sifatida asoslagan [15]. P. Li va R. Eshbi o'quvchilarning dalil va tarixiy bayonlarni tushunishi bosqichma-bosqich murakkablashishini aniqlab, tarixiy tushunish "progressiyasi" g'oyasini ilgari surgan [16]; B. Van Sledrayt esa tarixiy tafakkurni baholashning yangi andozalarini taklif qilgan [17].

Amaliy yo‘nalishda S. Vaynberg va hamkasblarining “Reading Like a Historian” yondashuvi muhim o‘rin tutadi: unda har bir dars tarixiy savol atrofida qurilib, hujjatlar bilan ishlash manbani aniqlash, kontekstlashtirish, taqqoslash va yaqin o‘qish savollari orqali tashkil etiladi [18]. A. Rayzman shahar o‘rta maktablarida olti oylik hujjatga asoslangan AQSh tarixi kursini sinovdan o‘tkazgan; keyingi sharhlarda qayd etilishicha, bu kursda o‘quvchilar mazmunni o‘zlashtirish bilan birga o‘qish ko‘nikmalarini ham yaxshilagan. Manbani aniqlash va yaqin o‘qish bo‘yicha ijobiy natijalar kuzatilgan, taqqoslash va kontekstlashtirish yo‘nalishlarida esa natijalarni yanada chuqurroq o‘rganish zarurati aniqlangan [19]. Bu natija muhim pedagogik xulosa beradi: kontekstlashtirish va taqqoslash amallarini rivojlantirishda maqsadli hamda izchil metodik yordam samarali imkoniyatlar yaratishi mumkin.

S. Ahonen tarixiy ong (historical consciousness) paradigmasining tarix ta’limi uchun asos bo‘la olishi masalasini muhokama qilgan [20]. R. Torp va A. Persson esa Seyksas modelini ilmiy jihatdan tahlil qilib, uni yanada takomillashtirish imkoniyatlarini ko‘rsatgan hamda tarixiy tafakkurni turli nazariy yondashuvlar bilan uyg‘unlikda o‘rganishning ahamiyatini ta’kidlagan [21].

Mahalliy tadqiqotlardan B. Safarovning 2025-yilgi maqolasida umumiy o‘rta ta’limda tarix o‘qitish metodikasi, tarixiy tafakkurni rivojlantirish va tadqiqot usulining bosqichlari (muammoni aniqlash, faraz ilgari surish, manbalarni tahlil qilish va natijalarni taqdim etish) tahlil qilingan; muallif, shuningdek, o‘quvchilarda mustaqil topilgan manbalarning ishonchliligini baholash ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish imkoniyatlariga e’tibor qaratgan [22].

B. Jurayevning 2026-yilda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnalida chop etilgan maqolasida pedagogika tarixini o‘qitish jarayonida talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari, uning tarkibiy qismlari va unga ta’sir etuvchi pedagogik omillar tahlil qilinib, interaktiv metodlar va tarixiy-qiyosiy tahlilning samaradorligi asoslangan [23]. A. Axmedov esa oliy ta’limda tarixiy tafakkurni talabalarning voqealarni vaqt va makon doirasida anglash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, manbalarni tahlil qilish va turli talqinlarni solishtirish qobiliyatlari bilan bog‘liq murakkab intellektual faoliyat sifatida talqin qilgan hamda manba bilan ishlashni tashkil etish va muammoli-tahliliy vazifalarning ta’lim samaradorligiga ta’sirini yoritgan [24]. Bu talqin ushbu maqolada qabul qilingan tafakkur komponentlari tuzilmasiga mos keladi.

Pedagogik-psixologik jihatdan tadqiqot L. S. Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi va o‘rganuvchiga ko‘rsatiladigan yordamning bosqichma-bosqich kamayishi haqidagi g‘oyalariga [25], shuningdek, J. Biggs va C. Tangning ta’lim natijalari, o‘quv faoliyati va baholashning uyg‘unligi (constructive alignment) konsepsiyasiga [26] tayanadi. Ikkinchi konsepsiya kredit-modul tizimi sharoitida ayniqsa muhim, chunki natijaga yo‘naltirilgan ta’lim talabaning egallagan bilimlari bilan bir qatorda ularni amaliy faoliyatda qo‘llay olish ko‘nikmalarini ham baholashni nazarda tutadi.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, xorijiy tadqiqotlar asosan maktab ta’limida, mahalliy tadqiqotlar (jumladan, [22–24]) esa umumiy o‘rta ta’lim va metodik tavsiyalar kontekstida tarixiy tafakkur masalasini yoritgan. Mavjud ilmiy izlanishlar oliy ta’limda tarixiy tafakkur va tarixiy-madaniy kompetensiyani manba bilan ishlash orqali yaxlit tizim sifatida rivojlantirishning pedagogik shartlari, bosqichlari va baholash mezonlarini yanada kengroq tadqiq etish uchun muhim nazariy asos yaratadi. Mazkur maqolaning o‘ziga xosligi ushbu ilmiy yondashuvlarni rivojlantirishga, ya’ni pedagogik shartlarni tarixiy tafakkur va madaniy kompetensiya tuzilmasi bilan bog‘lab, oliy ta’lim sharoiti uchun yaxlit model sifatida taklif etishga qaratilganida.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy-nazariy tahlil, hujjatlar tahlili, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

- Ilmiy-nazariy tahlil orqali tarixiy tafakkur va kompetensiya yondashuviga oid xorijiy adabiyotlar o‘rganildi va asosiy tushunchalar aniqlashtirildi.
- Hujjatlar tahlili usuli oliy ta’limning normativ asoslarini (farmon, qaror, strategiya) o‘rganishda qo‘llanildi.
- Qiyosiy tahlil xalqaro empirik tadqiqotlar natijalarini (tadqiqot hajmi, ishtirokchilar, o‘lchangan amallar bo‘yicha) solishtirishda hamda turli manba turlarining (yozma, moddiy, vizual, og‘zaki) didaktik imkoniyatlarini taqqoslashda ishlatildi.
- Kontent-tahlil orqali har bir manba turi uchun uning qaysi tafakkur amalini va qaysi madaniy komponentni rivojlantirishi aniqlandi.
- Modellashtirish usuli yordamida shartlar tizimi, uni amalga oshirish bosqichlari va constructive alignment mantiqiga tayangan baholash rubrikasi ishlab chiqildi.

Maqolada tadqiqotning nazariy-metodik bosqichi natijalari keltirilgan. Taklif etilgan modelni tajriba-sinov ishlarida sinovdan o'tkazish va uning samaradorligini miqdoriy ko'rsatkichlar asosida baholash tadqiqotning keyingi bosqichi sifatida rejalashtirilgan; tajriba dizayni "Tahlil va natijalar" bo'limining yakunida bayon etilgan.

Operatsional ta'riflar. Tarixiy tafakkur deganda talabaning manbani tanqidiy baholash, uni kontekstga joylash, turli manbalarni taqqoslash va dalillarga asoslangan talqin yarata olish layoqati tushuniladi.

Tarixiy-madaniy kompetensiya - talabaning o'z va boshqa xalqlarning tarixiy-madaniy merosi haqida bilimga ega bo'lishi, uni qadrlashi, tahlil va talqin qila olishi hamda madaniyatlararo muloqotda bu bilimlardan mas'uliyat bilan foydalana olishi.

Pedagogik shart-sharoitlar - ta'lim jarayonida belgilangan natijaga erishish ehtimolini oshiruvchi, tashkiliy, mazmuniy, metodik va baholash jihatlarini qamrab oluvchi o'zaro bog'liq omillar majmuasi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Normativ-huquqiy va institutsional kontekst

Tadqiqot dolzarbligini asoslovchi hujjatlar va ko'rsatkichlar 1-jadvalda jamlangan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda oliy ta'limda uch yo'nalishda parallel o'zgarish ro'y bermoqda: qamrov kengaymoqda, o'quv jarayoni kredit-modul tizimiga o'tmoqda va ta'lim sifatiga talab ortmoqda. Bu uch jarayonning kesishgan nuqtasida talabaning mustaqil, tahliliy faoliyatini ta'minlovchi o'quv mazmuni zaruriyati yuzaga keladi. Tarix fanida bunday mazmunning tabiiy asosi tarixiy manbalardir (1-jadval).

1-jadval: **Oliy ta'lim sohasidagi asosiy normativ hujjatlar va ko'rsatkichlar**

Hujjat / ko'rsatkich	Sana	Tadqiqot uchun ahamiyatli mazmuni
PF-5847-son Farmon	2019-yil 8-oktabr	Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi; qamrov darajasini 50 foizdan oshirish vazifasi [3].
O'RQ-637-son Qonun	2020-yil 23-sentabr	"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun; ta'lim sifatini oshirish va shaxsning intellektual rivojlanishini ta'minlash [2].
VM 824-son qarori	2020-yil 31-dekabr	ECTS asosidagi kredit-modul tizimiga 2020/2021-o'quv yilidan bosqichma-bosqich o'tish [4].
PF-60-son Farmon	2022-yil 28-yanvar	2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi [1].
OTM soni	2017/2018 va 2023/2024-o'quv yillari	72 tadan 219 taga o'sish, ya'ni taxminan 3 barobar [6].

Manba: [1–6] bo'yicha muallif tomonidan umumlashtirilgan.

2. Xalqaro empirik tadqiqotlar natijalarining qiyosiy tahlili

Manba bilan ishlash ta'lim natijasiga qanday ta'sir qilishini ko'rsatuvchi tadqiqotlar 2-jadvalda taqqoslangan. Ular bir-birini to'ldiradi: Vaynberg tadqiqoti mutaxassis va o'quvchi fikrlashi orasidagi farqni ochib bergan, Stenford guruhi tadqiqoti muammoning keng ko'lamini ko'rsatgan, Rayzman tadqiqoti esa o'qitish orqali bu farqni qisqartirish mumkinligini, ammo barcha amallar bir xil darajada rivojlanmasligini ko'rsatgan.

2-jadval: **Tarixiy tafakkur bo'yicha xalqaro empirik tadqiqotlar**

Tadqiqot	Hajmi va usuli	Asosiy natija
Vaynberg (1991)	8 mutaxassis tarixchi va 8 yuqori sinf o'quvchisi; Leksington jangi hujjatlari; "ovoz chiqarib fikrlash" [13; 14].	Tarixchilar manbani muallif va sharoitiga ko'ra baholadi, hujjatlarni solishtirdi va kontekstga joyladi; o'quvchilarda bu amallar ustun emasligi aniqlandi.
Stenford tarix ta'limi guruhi (2016)	2015-yil yanvaridan 2016-yil iyunigacha 12 shtatda 56 ta topshiriq; 7 804 ta javob [9].	Axborotni baholash qobiliyati qoniqarsiz; AP tarix kursi o'quvchilarining atigi 9 foizi lobbichi tashkilot saytining mohiyatini aniqlagan.
Rayzman (2012)	Shahar o'rta maktablarida olti oylik hujjatga asoslangan AQSh tarixi kursi [19].	Manbani aniqlash va yaqin o'qishda samara kuzatilgan; taqqoslash va kontekstlashtirishda samara aniq bo'lmagan (keyingi sharhlarga ko'ra).

Manba: [9; 13; 14; 19] asosida muallif ishlanmasi.

Uchala tadqiqotdan kelib chiqadigan umumiy xulosa shunday: tarixiy tafakkur o'z-o'zidan shakllanmaydi, uni rivojlantirish uchun maxsus tanlangan manbalar, aniq savollar va muntazam amaliyot talab etiladi; kontekstlashtirish va taqqoslash amallariga esa qo'shimcha vaqt hamda metodik yordam ajratish zarur. Bu xulosa pastda ishlab chiqilgan shartlar tizimining 1–3-bandlariga bevosita asos bo'ldi.

3. Kompetensiyalar tuzilmasi

Adabiyotlar tahlili asosida tarixiy tafakkurning to‘rt komponenti ajratildi:

1) manba tanqidi (muallif kim, qachon, kim uchun va qanday maqsadda yozgan);
2) kontekstlashtirish (voqea va manbani davr, makon va madaniy muhitga joylash);
3) taqqoslash va sabab-oqibat tahlili (turli manbalarni solishtirish, ziddiyatlarni aniqlash);
4) talqin va dalillash (xulosani manbaga tayangan holda asoslash).

Tarixiy-madaniy kompetensiya esa to‘rt tarkibiy qismdan iborat deb qaraldi: bilimiy (madaniy-tarixiy meros haqida tizimli bilim), qadriyatli (o‘zlikni anglash, boshqa madaniyatga hurmat va bag‘rikenglik), faoliyatli (merosni tahlil va talqin qilish, uni saqlash va targ‘ib etishda ishtirok etish) hamda kommunikativ (madaniyatlararo muloqot va o‘z fikrini asoslab bayon etish) qismlar. Ikki tuzilma o‘zaro bog‘liq: masalan, manba tanqidi faoliyatli qismni, talqin va dalillash kommunikativ qismni, kontekstlashtirish esa bilimiy va qadriyatli qismlarni bevosita rivojlantiradi.

4. Manba turlarining didaktik imkoniyatlari

Har bir manba turi talaba tafakkuri va madaniy kompetensiyasining turli tomonlarini rivojlantiradi. Shuning uchun manbalarni tasodifiy emas, maqsadga muvofiq tarzda to‘plam (source set) shaklida tanlash zarur. 3-jadvalda O‘zbekiston va Markaziy Osiyo tarixiga oid ma’lum manbalar, ularning yaratilish faktlari va ulardan didaktik foydalanish yo‘llari keltirilgan.

3-jadval: **Manba turlari, ularning faktlari va didaktik imkoniyatlari**

Manba va asosiy faktlar	Didaktik imkoniyati	Rivojlanadigan komponent	Topshiriq namunasi
Narshaxiyning (taxminan 899–959) “Buxoro tarixi”: arabchada 943–944-yillarda yozilib, Somoniy Nuh ibn Nasrga bag‘ishlangan; asl matn yo‘qolgan; 1128–1129-yillarda Abu Nasr Qubaviy forschaga tarjima qilib, kengaytirgan; Muhammad ibn Zufar 1178–1179-yillarda qisqartirgan [27].	Manbaning qatlamlari: asl nusxa, tarjima va qisqartma; har qatlamda muallif niyati o‘zgargan.	Manba tanqidi; kontekstlashtirish; bilimiy qism.	Uch qatlamni taqqoslab, “Nima asl, nima keyinchalik qo‘shilgan?” savoliga javob yozish.
“Boburnoma”: Bobur (1483–1530) chig‘atoy turkiysida 1494–1529-yillar voqealarini yozgan; guvoh va ishtirokchi pozitsiyasi [28].	Shaxsiy xotira janri; muallifning subyektiv baholari.	Manba tanqidi; talqin; qadriyatli qism.	“Muallif niyati xaritasi”: bir voqea bo‘yicha Bobur bayoni va boshqa manbani solishtirish.
Xuan Szan: 629-yilda yo‘lga chiqib, 645-yilda qaytgan; “Qaydlar” 646-yilda tuzilgan; Samarqandda 630-yillar boshida bo‘lgan [29].	Begona nigoh; ko‘rilgan va eshitilgan ma’lumotni farqlash.	Kontekstlashtirish; taqqoslash; kommunikativ qism.	Sayyoh qaydlarini arxeologik ma’lumotlar bilan solishtiruvchi jadval.
Beruniyning “Osor ul-boqiya”si: 1000-yilda, muallif 27 yoshida yozilgan; forslar, turklar, hindlar, yunonlar va boshqa xalqlarning oy va yil hisoblari qiyoslanadi [30].	Madaniyatlarni solishtirma o‘rganish; xronologiya muammosi.	Sabab-oqibat tahlili; bilimiy va qadriyatli qism.	Turli xalqlar taqvimlarini qiyoslab, umumiy va farqli jihatlarga xulosa chiqarish.
Afrosiyob devoriy rasmlari: 1965-yilda yo‘l qurilishi paytida topilgan; VII asr o‘rtalariga (Samarqand hukmdori Varxuman davriga) oid deb baholanadi; aniq sana bo‘yicha fikrlar turlicha [31].	Vizual manba; elchilar va sayohat sahnalarini o‘qish.	Talqin; dalillash; faoliyatli qism.	Tasvirni “Kim, qachon, nega?” savollari asosida tahlil qilish va xulosani yozma asoslash.
“Ipak yo‘llari: Zarafshon–Qoraqum yo‘lagi”: 2023-yilda Tojikiston va Turkmaniston bilan birgalikda YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan [10].	Madaniy meros obyekti; transmilliy nuqtayi nazar.	Qadriyatli va faoliyatli qismlar.	Merosni targ‘ib etish bo‘yicha mini-loyiha (virtual ekspozitsiya).

Manba: [10; 27–31] asosida muallif ishlanmasi. Ayrim sanalar manbalarda turlicha beriladi (masalan, Xuan Szan sayohatining boshlanishi 626 yoki 629-yil deb ko‘rsatiladi); bu holat o‘zi manba tanqidi uchun o‘quv materialidir.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

5. Namunaviy keys: "Buxoro tarixi" manbasining qatlamlari

Manba tanqidini o'rgatishda eng samarali materiallardan biri Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asaridir. Asar 943–944-yillarda arab tilida yozilib, Somoniy hukmdor Nuh ibn Nasrga bag'ishlangan, asl arabcha matn bizgacha yetib kelmagan; u 1128–1129-yillarda forschaga tarjima qilinib, davr kengaytirilgan, keyinchalik (1178–1179-yillarda) qisqartirilgan [27]. Demak, talabaning qo'lidagi matn bir necha "qo'l"dan o'tgan. Mashg'ulotda talabalarga uch savol beriladi:

1) matnni dastlab kim va qachon yozgan;
2) tarjimon va qisqartiruvchi nimani o'zgartirgan bo'lishi mumkin;
3) biz bu matn asosida Buxoro tarixi haqida qanday xulosa chiqarishga haqlimiz va qaysi xulosaga ehtiyotkorlik bilan yondashishimiz kerak.

Bu topshiriq talabani "manbada yozilgan - demak, haqiqat" degan soddalashtirilgan fikrdan chiqarib, ishonchlilik darajasini asoslashga o'rgatadi, ya'ni manba tanqidi va dalillash amallarini birga mashq qildiradi.

6. An'anaviy amaliyotdagi muammolar

Adabiyotlar tahlili va o'quv amaliyotini umumlashtirish quyidagi muammolarni ajratib ko'rsatish imkonini berdi:

a) manba ko'pincha mustaqil tahlil obyekti emas, darslik matnini "tasdiqlovchi" ilova sifatida beriladi;
b) talaba tayyor xulosani o'zlashtiradi, o'zi savol qo'ymaydi;
c) manbalar bir-biriga mos tanlanadi, qarama-qarshi guvohliklar kam beriladi;
d) baholash faktlarni qayta aytishga yo'naltirilgan bo'lib, manba tahlili amallarini o'lchamaydi;
e) madaniy-qadriyatli komponent tahlilsiz, shior darajasidagi tarbiyaviy xulosalarga aylanib qoladi.

Birinchi to'rtta muammo xalqaro tadqiqotlar natijalariga (2-jadval) mos keladi: tahlil amallari o'rgatilmaganda talaba manbaga tanqidiy yondasha olmaydi.

7. Pedagogik shart-sharoitlar tizimi

Aniqlangan muammolar va nazariy yondashuvlar asosida tarixiy tafakkur hamda tarixiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishning beshta o'zaro bog'liq pedagogik sharti asoslandi (4-jadval).

4-jadval: **Pedagogik shart-sharoitlar va ularni amalga oshirish mexanizmlari**

Pedagogik shart	Amalga oshirish mexanizmi	Kutilayotgan natija
1. Manbalarning tizimli va ko'p rakursli tanlanishi	Har bir mavzu bo'yicha turli turdagi va turli nuqtayi nazardagi manbalar to'plamini shakllantirish; murakkablikni bosqichma-bosqich oshirish.	Talaba bir voqeani turli guvohliklar orqali ko'radi, bir tomonlama xulosadan qochadi.
2. Muammoli-tadqiqot yo'nalishidagi topshiriqlar	Mavzuni tarixiy savol atrofida qurish; mini-tadqiqot, debat, keys-stadi va loyiha topshiriqlari.	Talaba savol qo'yish va farazni manba bilan sinash ko'nikmasini egallaydi.
3. Bosqichma-bosqich metodik yordam (scaffolding)	Tahlil varaqasi ("Kim, qachon, nima uchun?"), o'qituvchining "ovoz chiqarib fikrlash" namunasi, yordamning izchil kamaytirilishi.	Talaba mustaqil manba tahliliga o'tadi.
4. Natija, faoliyat va baholashning uyg'unligi	O'quv natijalarini manba bilan ishlash amallari orqali ifodalash; rubrikali va formativ baholash.	Baholash fikrlash jarayonini o'lchaydi, yodlashni emas.
5. Madaniy-axborot muhiti va dialogik muloqot	Muzey, arxiv va raqamli to'plamlardan foydalanish; manbaning ishonchliligini tekshirish; hurmatli munozara muhiti.	Madaniy merosga qadriyatli munosabat va axborot savodxonligi shakllanadi.

Manba: muallif ishlanmasi.

Birinchi shart manbalarning maqsadli va tizimli ravishda to'plam sifatida tanlanishini nazarda tutadi. To'plamga kamida uch turdagi manba (masalan, yozma bayon, moddiy-arxeologik dalil va vizual tasvir) kiritilishi hamda ular orasida bir-birini to'ldiruvchi yoki turli nuqtayi nazarlarni aks ettiruvchi ma'lumotlar bo'lishi tavsiya etiladi.

Ikkinchi shart mavzuni tarixiy savol asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Masalan, "Xuan Szan qaydlari VII asr Samarqandini qanchalik to'liq aks ettiradi?" degan savol talabaning manbani mustaqil izlanish va dalillarga asoslangan javob topish vositasi sifatida o'rganishiga xizmat qiladi.

Uchinchi shart Vigotskiy g'oyasiga tayanadi [25]: dastlab o'qituvchi tahlil jarayonini ovoz chiqarib namoyish etadi, so'ng talabalar tahlil varaqasi yordamida juftlikda ishlaydi, yakuniy bosqichda esa topshiriqlarni mustaqil

bajaradi. Rayzman tadqiqotidagi natijalar (2-jadval) kontekstlashtirish va taqqoslash ko‘nikmalarini izchil rivojlantirishda qo‘shimcha metodik yordamning ahamiyatini ko‘rsatadi. Shu bois ushbu bosqichlarga yetarli vaqt ajratish va ularni amaliy mashg‘ulotlar bilan boyitish tavsiya etiladi.

To‘rtinchi shart Biggs va Tang konsepsiyasiga tayanadi [26]: o‘quv natijasi (“talaba manbaning ishonchliligini asoslab baholay oladi”), o‘quv faoliyati (manba pasporti, taqqoslash jadvali, debat) va baholash (rubrika) o‘zaro uyg‘un bo‘lishi kerak. O‘quv natijalari tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilganda, baholash jarayonida ham ushbu ko‘nikmalarni aniqlashga xizmat qiluvchi topshiriqlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Beshinchi shart madaniy-axborot muhitini rivojlantirish bilan bog‘liq: muzey, arxiv, raqamli to‘plamlar hamda YUNESKO ro‘yxatidagi obyektlar haqidagi ma’lumotlardan foydalanish talabalarda madaniy merosga qadriyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Manbalarning ishonchliligini muntazam tekshirish esa axborot savodxonligini mustahkamlaydi.

Mazkur shartlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ko‘p rakursli manbalar to‘plamidan (1-shart) tahlil varaqasi (3-shart) bilan birgalikda foydalanish talabalarning mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Rubrika asosidagi baholash (4-shart) esa o‘quv natijalarini aniq mezonlar bo‘yicha baholashga yordam beradi. Shu sababli ushbu shartlarni yagona pedagogik tizim sifatida joriy etish maqsadga muvofiqdir.

8. Amalga oshirish bosqichlari va namunaviy mashg‘ulot

Pedagogik shartlarni amaliyotga samarali tatbiq etish uchun to‘rt bosqichli modul taklif etiladi. Birinchi, yo‘naltiruvchi-motivatsion bosqichda o‘qituvchi muammoli tarixiy savol qo‘yadi va talabalarning dastlabki tasavvurlarini aniqlaydi. Ikkinchi, tahliliy bosqichda talabalar har bir manbaga “pasport” tuzadi (muallif, vaqt, maqsad, auditoriya, ishonchlilik). Uchinchi, sintez va talqin bosqichida manbalar o‘zaro taqqoslanadi, ulardagi o‘ziga xos va farqli jihatlar aniqlanadi hamda dalillarga asoslangan xulosa yoziladi yoki debatda himoya qilinadi. To‘rtinchi, refleksiv-amaliy bosqichda talabalar o‘z tahlilini baholaydi va madaniy merosni targ‘ib etishga qaratilgan mahsulot (virtual ekspozitsiya, ilmiy ma’ruza, ekskursiya matni) tayyorlaydi.

Misol tariqasida “VII asr Markaziy Osiyosi: sayyoh nigohi va moddiy dalillar” mavzusidagi 80 daqiqalik mashg‘ulotni keltiramiz. Dastlabki 10 daqiqada talabalarga “Xuan Szan qaydlari VII asr Samarqandini qanchalik to‘liq aks ettiradi?” degan savol qo‘yiladi. Keyingi 20 daqiqada har bir talaba Xuan Szan qaydlaridan parcha va Afrosiyob devoriy rasmlari tasviri uchun manba pasportini to‘ldiradi. Bunda sayyoh Samarqandda 630-yillar boshida bo‘lgani, asar 646-yilda tuzilgani, rasmlar esa VII asr o‘rtalariga oid ekani hisobga olinib [29; 31], ikki manba orasidagi vaqt farqi ilmiy tahlil qilinadi. Navbatdagi 25 daqiqada guruhlar sayyoh bayoni va moddiy dalillarni solishtirib, ularning o‘zaro mos va farqli jihatlarini jadvalga tushiradi. So‘nggi 15 daqiqada guruhlar tarixiy savolga o‘z javoblarini dalillar bilan asoslab himoya qiladi, oxirgi 10 daqiqada esa talabalar tahlil jarayonini rubrika asosida mustaqil baholaydi. Natijada talabalar manba tanqidi, kontekstlashtirish va taqqoslash amallarini amaliy faoliyat orqali mustahkamlaydi, shu bilan birga o‘sha davr madaniy aloqalari haqidagi bilimlarini kengaytiradi va madaniy merosga hurmat bilan yondashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

9. Baholash mezonlari

Constructive alignment mantiqiga muvofiq har bir komponent uchun uch darajali rubrika ishlab chiqildi (5-jadval). Har bir mezon bo‘yicha boshlang‘ich daraja 1 ball, o‘rta daraja 2 ball, yuqori daraja 3 ball bilan baholanadi; umumiy ball 4 dan 12 gacha bo‘ladi: 4–6 ball boshlang‘ich, 7–9 ball o‘rta, 10–12 ball yuqori darajaga mos keladi. Rubrika talabaga topshiriqdan oldin ma’lum qilinadi. Bu esa baholash mezonlarining shaffofligini ta’minlash, talabalarning o‘z faoliyatini mustaqil nazorat qilish va ta’lim natijalarini izchil yaxshilashga xizmat qiladi.

5-jadval: **Tarixiy tafakkur va tarixiy-madaniy kompetensiyani baholash rubrikasi**

Mezon	Boshlang‘ich daraja (1 ball)	O‘rta daraja (2 ball)	Yuqori daraja (3 ball)
Manba tanqidi	Manbadagi ma’lumotni so‘zsiz haqiqat deb qabul qiladi.	Muallif va vaqtni aniqlaydi, maqsadini to‘liq ochmaydi.	Muallif, maqsad, auditoriya va ishonchlilikni asoslab baholaydi.
Kontekstlashtirish	Manbani davrdan ajratib, hozirgi nuqtayi nazardan izohlaydi.	Davr va joyni ko‘rsatadi, madaniy muhitni yuzaki bayon etadi.	Manbani siyosiy, ijtimoiy va madaniy kontekstda izchil tushuntiradi.
Taqqoslash va dalillash	Bitta manbaga tayanadi, xulosani dalilsiz bayon etadi.	Ikki manbani solishtiradi, ziddiyatni sezadi, izohlay olmaydi.	Bir necha manbani taqqoslab, ziddiyatni izohlaydi va xulosani dalillar bilan asoslaydi.
Tarixiy-madaniy talqin	Madaniy merosga baho berishda tayyor shiorlarga tayanadi.	Merosning ahamiyatini tushuntiradi, boshqa nuqtayi nazarni inkor etmaydi.	Merosni turli nuqtayi nazardan sharhlaydi, hurmatli muloqot yuritadi va o‘z fikrini asoslaydi.

10. Tajriba-sinov dizayni

Taklif etilgan modelning samaradorligini tekshirish uchun tajriba va nazorat guruhlarini o‘z ichiga olgan pedagogik tajriba rejalashtirilgan. Tajriba guruhida mashg‘ulotlar yuqoridagi beshta shart va to‘rt bosqichli modul asosida, nazorat guruhida esa an’anaviy usulda o‘tkaziladi; har bir guruhda kamida 25–30 nafar talaba ishtirok etishi nazarda tutiladi. Tajribadan oldin va keyin ikkala guruhda ham bir xil tarkibdagi diagnostik topshiriq (talabalarga bir voqea haqidagi 3–4 ta manbani tahlil qilish) bajartiriladi va natijalar 5-jadvaldagi rubrika bo‘yicha baholanadi. Natijalarni solishtirishda guruhlar o‘rtasidagi farq statistik mezonlar (masalan, Mann–Uitni yoki Vilkokson mezoni) yordamida tekshiriladi. Bu bosqichning natijalari tadqiqotning keyingi nashrida e’lon qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, oliy ta’limda qamrov kengayishi, kredit-modul tizimiga o‘tish va talabaning mustaqil ishiga yuklama ortishi sharoitida tarixiy manbalar talabalarda tarixiy tafakkur va tarixiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir, ammo bu natija manba bilan ishlashning maqsadli, tizimli va baholanadigan tarzda tashkil etilishiga bog‘liq.

Ikkinchidan, xalqaro empirik tadqiqotlar (Vaynberg, Stenford guruhi, Rayzman) tarixiy tafakkur o‘z-o‘zidan shakllanmasligini, uni maxsus o‘rgatish zarurligini hamda kontekstlashtirish va taqqoslash amallari uchun qo‘shimcha metodik yordam kerakligini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, tarixiy tafakkurning to‘rt komponenti (manba tanqidi, kontekstlashtirish, taqqoslash va sabab-oqibat tahlili, talqin) tarixiy-madaniy kompetensiyaning bilimiy, qadriyatli, faoliyatli va kommunikativ qismlari bilan o‘zaro bog‘liq.

To‘rtinchidan, beshta pedagogik shart aniqlandi: manbalarning tizimli va ko‘p rakursli tanlanishi, muammoli-tadqiqot topshiriqlari, bosqichma-bosqich metodik yordam, natija–faoliyat–baholash uyg‘unligi hamda madaniy-axborot muhiti va dialogik muloqot.

Beshinchidan, to‘rt bosqichli modul va uch darajali rubrika ishlab chiqildi.

Amaliy takliflar:

1) oliy ta’lim muassasalarida tarix yo‘nalishlari uchun mavzular kesimida tarixiy manbalar bankini (matn, tasvir, arxeologik va raqamli manbalar) shakllantirish;
2) o‘quv rejalarida seminar va amaliy mashg‘ulotlarning kamida bir qismini manba tahliliga ajratish;
3) baholashda rubrikali va formativ yondashuvni keng joriy etish;
4) tarix o‘qituvchilari va magistrantlar uchun manba bilan ishlash metodikasi bo‘yicha malaka oshirish modullarini yaratish;
5) muzey, arxiv va ilmiy markazlar bilan hamkorlikda o‘quv-amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish;
6) manba pasporti va tahlil varaqasining namunaviy shakllarini ishlab chiqib, o‘quv-uslubiy majmualarga kiritish.

Keyingi tadqiqotlarda taklif etilgan modelni tajriba va nazorat guruhlarida sinovdan o‘tkazish, rubrika bo‘yicha boshlang‘ich va yakuniy natijalarni solishtirish, natijalarni statistik jihatdan tahlil qilish hamda kontekstlashtirish va taqqoslash amallariga ajratiladigan vaqt va metodik yordam hajmining ta’sirini alohida o‘rganish rejalashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. Lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son[4]. Lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son[5]
4. Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. Lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

4 https://lex.uz/docs/-5013007
5 https://lex.uz/docs/-4545884

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son[6]
6. qarori. “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Ilovadagi nizom: “Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida”.
7. Mehnat bozori axborot tizimi (lmis.imrs.uz). Ta’lim tizimi va infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha axborot materiali.
8. Wineburg, S. (2001). Historical Thinking and Other Unnatural Acts: Charting the Future of Teaching the Past. Philadelphia: Temple University Press.
9. Seixas, P., & Morton, T. (2013). The Big Six Historical Thinking Concepts. Toronto: Nelson Education.
10. Wineburg, S., McGrew, S., Breakstone, J., & Ortega, T. (2016). Evaluating Information: The Cornerstone of Civic Online Reasoning. Stanford Digital Repository. http://purl.stanford.edu/fv751yt5934
11. UNESCO World Heritage Centre. Uzbekistan: States Parties. https://whc.unesco.org/en/statesparties/UZ/; Silk Roads: Zarafshan-Karakum Corridor (ref. 1675).
12. Collingwood, R. G. (1946). The Idea of History. Oxford: Clarendon Press.
13. Bloch, M. (1953). The Historian’s Craft. New York: Alfred A. Knopf.
14. Wineburg, S. (1991). Historical problem solving: A study of the cognitive processes used in the evaluation of documentary and pictorial evidence. Journal of Educational Psychology, 83(1), 73–87.
15. Wineburg, S. S. (1991). On the reading of historical texts: Notes on the breach between school and academy. American Educational Research Journal, 28(3), 495–519.
16. Lévesque, S. (2008). Thinking Historically: Educating Students for the Twenty-First Century. Toronto: University of Toronto Press.
17. Lee, P., & Ashby, R. (2000). Progression in historical understanding among students ages 7–14. In P. Stearns, P. Seixas & S. Wineburg (Eds.), Knowing, Teaching, and Learning History: National and International Perspectives (pp. 199–222). New York: New York University Press.
18. VanSledright, B. A. (2014). Assessing Historical Thinking and Understanding: Innovative Designs for New Standards. New York: Routledge.
19. Wineburg, S., Martin, D., & Monte-Sano, C. (2011). Reading Like a Historian: Teaching Literacy in Middle and High School History Classrooms. New York: Teachers College Press.
20. Reisman, A. (2012). Reading like a historian: A document-based history curriculum intervention in urban high schools. Cognition and Instruction, 30(1), 86–112.
21. Ahonen, S. (2005). Historical consciousness: a viable paradigm for history education? Journal of Curriculum Studies, 37(6), 697–707.
22. Thorp, R., & Persson, A. (2020). On historical thinking and the history educational challenge. Educational Philosophy and Theory, 52(8), 891–901.
23. Safarov, B. (2025). Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarix fanini o‘qitish metodikasining umumiy konsepsiyasi va ahamiyati. Jamiyat va innovatsiyalar – Society and innovations, 6(2), 93–99. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss2-pp93-99
24. Jurayev, B. (2026). Pedagogika tarixini o‘qitishda talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish. “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali, 4(5), 6–9. https://doi.org/10.5281/zenodo.20252767
25. Axmedov, A. M. (2025). Tarixiy tafakkur tushunchasi va uning tarix ta’limidagi o‘rni. Golden Brain, 3(20), 194–200. https://doi.org/10.5281/zenodo.18387045
26. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
27. Biggs, J., & Tang, C. (2011). Teaching for Quality Learning at University (4th ed.). Maidenhead: Open University Press / McGraw-Hill.
28. Narshakhī, A. B. M. (1954). The History of Bukhara (Translated from a Persian abridgment of the Arabic original by R. N. Frye). Cambridge, MA: The Mediaeval Academy of America.
29. Babur, Z. M. (1996). The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor (Translated and edited by W. M. Thackston). New York: Oxford University Press.
30. Li, R. (Trans.). (1995). The Great Tang Dynasty Record of the Western Regions. Berkeley, CA: Numata Center for Buddhist Translation and Research.
31. Encyclopaedia Iranica. Āthār al-bāqīa ʿan al-qorūn al-ḵālīa (The Chronology of Ancient Nations) by Bīrūnī. https://www.iranicaonline.org/articles/atar-al-baqia-an-al-qorun-al-kalia-the-chronology-of-ancient-nations-by-biruni/
32. Encyclopaedia Iranica. Afrāsīāb ii. Wall paintings. https://www.iranicaonline.org/articles/afrasiab-ii-wall-paintings

6 https://lex.uz/uz/docs/-5193564

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.